



**SHAMSIROY HASANOVA – O‘ZBEKISTONNING BIRINCHI
PROFESSIONAL AYOL RASSOMI VA UNING TASVIRIY SAN’AT RIVOJIGA
QO‘SHGAN HISSASI**

Hilola Orifjon qizi Abdusalomova

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Mahobatli
rangtasvir yo‘nalishi talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston tasviriyl san’ati tarixida alohida o‘rin egallagan Shamsiro‘y Hasanovanning hayoti, ta’lim olishi, ijodiy faoliyati hamda o‘zbek tasviriyl san’ati rivojiga qo‘shgan hissassi yoritiladi. Shuningdek, rassomning mashhur asarlari, badiiy uslubi va turmush o‘rtog‘i Chingiz Ahmarov bilan ijodiy hamkorligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Shamsiro‘y Hasanova, Chingiz Ahmarov, tasviriyl san’at, monumental san’at, portret, natyurmort, Bog‘bon qiz, o‘zbek rassomlari.

Kirish

Tasviriyl san’at xalqning tarixini, madaniyatini va ma’naviy dunyosini aks ettiruvchi muhim san’at turlaridan biridir. XX asrda o‘zbek tasviriyl san’ati yangi bosqichga ko‘tarildi va aynan shu davrda Shamsiro‘y Hasanova o‘zbek ayollari orasidan yetishib chiqqan ilk professional rassom sifatida tanildi. Uning ijodi milliy qadriyatlar, ayol siymosi va inson ruhiyatini badiiy talqin etishi bilan ajralib turadi. Rassom yaratgan asarlar bugungi kunda ham o‘zining badiiy va tarixiy ahamiyatini saqlab qolgan.

Asosiy qism

Shamsiro‘y Hasanova 1917-yil 6-avgustda Toshkent shahrida ishchi oilasida tavallud topgan. Bolaligidan tasviriyl san’atga qiziqqan bo‘lib, dastlab pedagogika texnikumida, keyinchalik Toshkent rassomlik bilim yurtida Aleksandr Volkov va Pavel Gan rahbarligida tahsil olgan. Mazkur ta’lim jarayoni uning ijodiy dunyoqarashi shakllanishida muhim o‘rin tutgan.

Bilim yurtini tamomlagach, u O‘zbekiston Davlat san’at muzeyida faoliyat boshladi va keyinchalik muzey direktori lavozimiga tayinlandi. Bu o‘sha davr ayollari uchun katta yutuq bo‘lib, uning san’at sohasidagi nufuzini yanada mustahkamladi.

Shamsiro‘y Hasanova asosan portret va natyurmort janrlarida ijod qildi. Uning “Bog‘bon qiz”, «Skripkachi qiz», «Avtoportret», «Nodirabegim», «Zebunniso», «Uvaysiy», «Mutriba», «Mevalar», «Koptok gul» va «Xitoy chinnisi» kabi asarlari o‘zbek rangtasvir san’atining muhim namunalaridan hisoblanadi. Ayniqsa, «Bog‘bon qiz» asari rassomning ijodiy mahoratini yaqqol namoyon etuvchi asarlardan biridir. Ushbu portretida o‘zbek ayolining tabiiy go‘zalligi, mehnatsevarligi va tabiat bilan uyg‘unligi badiiy vositalar orqali ifodalangan.





Rassom ijodida realizm uslubi Sharq miniatyurasi an'analari bilan uyg'unlashgan. U rang tanlash, kompozitsiya yaratish va qahramonning ruhiy holatini tasvirlashda o'ziga xos uslub yaratgan. Uning asarlarida milliy liboslar, bezaklar va xalqning urf-odatlar alohida e'tibor bilan tasvirlangan.

Tarixda shoirlarning betakror she'rlari qolgan, ammo ularning portretlari yo'q va obrazlarni tasvirlash tabiiyki musavvira uchun ko'plab mashaqqatlarni keltirib chiqargan. Rassomning rangtasvir asarlari bilan tanishar ekanmiz rassom o'z oldida turgan vazifalarni naqadar mahorat bilan yechganiga amin bo'lamiz. Zebuniso portretida biz nafaqat o'ziga o'xshash qiyofa ekanligini balki uni Sh.Xasanovaga o'xshash yosh, hayajonli va izlanuvchanlikni ko'ramiz.

Shamsiro'y Hasanovaning hayoti va ijodida turmush o'rtog'i Chingiz Ahmarovning ham o'rni katta. Chingiz Ahmarov monumental rangtasvir san'atining yirik namoyandalaridan biri bo'lib, Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik katta teatri foyesidagi devoriy rasmlari bilan mashhur. Er-xotin rassomlar Navoiy teatri bezaklari ustida birgalikda ishlagan va o'zbek tasviriy san'ati rivojiga munosib hissa qo'shgan.

Shamsro'y Hasanova tabiatan g'oyat kamtar inson edi. Muzeyga kelib turgan talabalarga o'z mehrini bergan, o'zbek san'at va madaniyati tarixining jasoratli, zukko, ijodkor ayollari haqida hikoya qilishni burchi deb bilgan. U katta orzu va umidlar bilan yashagan. Bu haqda keksa pedagog rassom To'xtamurod Sodiqov shunday xotirlaydi: "Men P.Benkov nomli respublika bilim yurti talabasi edim. San'at muzeyida V.Vereshaginning «Ko'knori chekuvchilar» kartinasidan nusxa ko'chirar edim. O'shanda Shamsro'y opa muzey direktori yedi. Men muzeyga uch oy davomida muntazam kelib turdim. Opa meni tez-tez o'z xonasiga olib kirib, choy bilan siylar, rassomlik mahorati haqida gapirar, meni o'z tengidek ko'rardi. Opa mendan o'n to'rt yosh katta edi, qarangki, men institutga kirganimda, u kishi shu yoshida uchinchi kursda o'qir ekan. U kishining «O'zbek ayollari» nomli diplom ishi respublika rassomlik bilim yurti binosi foyesida osiqlik turardi. Musavvira ijodidan biz bilgandan ko'ra ko'proq meros qolgan. Bunday deyishimga bir voqea asos beradi. Bir kuni Nosir Husanov bir mahallaga borib qoladi va bir xonadonning uy chordog'idan o'ram-o'ram qilib qo'yilgan asarlarni ko'rib qoladi. Shunda u: «Sizlarning oilangizda rassom bormi?» deb





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



so‘raganida, uy egasi Shamsro‘y Hasanova ularning yaqin qarindoshi bo‘lganini, bu asarlar undan meros ekanini aytadi. Afsuski, men Nosirdan uning manzilini so‘ramagan edim. Nosir ham bundan o‘n yilcha avval olamdan o‘tgan”.

Xulosa

Shamsiro‘y Hasanova o‘zbek tasviriy san’ati tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk rassomlardan biridir. U milliy rangtasvir maktabining rivojlanishiga, ayniqsa portret va natyurmort janrlarining taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi. Uning asarlari bugungi kunda ham san’at ixlosmandlari va tadqiqotchilar tomonidan yuksak baholanmoqda. Rassomning ijodiy merosi kelajak avlod uchun bebaho madaniy boylik hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Саидова Д. Жемчужина узбекского искусства – художник Шамсирой Хасанова / SAN’AT №1-2. – Тошкент: 2005. https://sanat.orexca.com/2005_rus/2005-1-2/pearl_of_art-2/.
2. Normatov H. Shamsroyning qalb tugyonlari Shamsroy. Telefilm. 2012. Xurshid Davron kutubxonasi. https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/nodir_normatov-shamsroyning-qalb-tugyonlari.html.
3. Shamsro‘y Xasanova hayoti va ijodi | Образовательная социальная сеть, <https://nsportal.ru/user/1256013/page/shamsroy-xasanova-hayoti-va-ijodi>.
4. Выставка Шамсрой Хасановой — первой узбекской художницы — Kultura.uz, https://kultura.uz/view_3_r_526.html.